

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№ MD-70110501 – 2.00.1
2021 yil “28” ____ 08 ____



BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA PEDAGOGIK TADQIQOTLAR
(Tanlov fani: Boshlang‘ich ta‘lim metodologiyasi)

FAN DASTURI

Bilim sohasi	100000	– Gumanitar
Ta‘lim sohasi:	140000	– Pedagogika
Ixtisoslik:	70110501	– Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta‘lim)

NUKUS– 2021

Fan, modul kodi IIMM1004	O'quv yili 2021-2022	Semestr 1-2	ECTS – Kreditlar 6	
Fan/Modul turi: Majburiy	Ta'lim tili qoraqalpoq		Xaftadagi dars soatlari	
Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA PEDAGOGIK TADQIQOTLAR (Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi)		90	90	180

I.Fanning mazmuni

Fanning asosiy maqsadi: Mazkur fan dasturi magistratura bo'limi 70110501 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) mutaxassisligi uchun mo'ljallangan.

Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarni pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va amalga oshirishga tayyorlash, metodologik madaniyatni tarkib toptirish.

Fanning vazifasi – magistrnlarning pedagogik tadqiqotlarni tashkil etishning metodologik qoidalarini egallashlarini ta'minlash; ularning tadqiqotlarini tashkil etish va o'tkazish mantiqini o'zlashtirishlari uhun sharoit yaratish; magistrnlarni magistrlik dissertatsiyasini bajarish jarayonida pedagogik tadqiqotlarni o'tkazishga tayyorlashdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (Ma'ruza mashg'ulotlari)

1-Modul. Pedagogik tadqiqollarning mazmuni va mohiyati.

1-Mavzu: Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi o'quv fani sifatida.

Metodologiya o'quv fan sifatida. Metodologiya tushunchasining mazmuni, tavsifi va funksiyalari. Metodologiya ilmiy bilishning tarkibiy qismi. Metodologiyaning umumfalsafiy darajasi. Metodologiyaning umumilmiy darajasi. Pedagogikaning qonun va kategoriyalari, prinsiplari, fan bilimlar tizimi sifatida, fanlardagi qonunlar va qonuniyatlar, ilmiy tadqiqot metodlari va ularning turlari, qiyoslash va uning turlari, kuzatish va uning turlari, modellashtirish va uning turlari.

2-Mavzu: Boshlang'ich ta'lim metodolgiyasi fanining tarixi va tadrijiy rivojlanishi

Pedagogikaning fan sifatida shakllanib borishi ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat ekanligi, eng qadimgi manbalardan boshlab, keyinchalik paydo bo'lgan ta'limiy-axloqiy asarlar, inson shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirish muammosi, qadimgi Yunonistonda Suqrot, Pifagor, Aristotel, Platonlarning inson kamoloti va tarbiyasi masalalariga oid qarashlari, Sharq mutafakkirlari Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan boshlab, Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmud Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Sa'diyning «Guliston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» va boshqa juda ko'p didaktik asarlarida ilgari surilgan pedagogik g'oyalar. Yan Amos Komenskiy, shveysariyalik pedagog Iogann Genrix Pestalossi, nemis pedagogi Adolf Disterverg, rus pedagogi K.D.Ushinskiylarning Pedagogika fani metodologiyasining yaratilishida ilgari surgan g'oyalari.

3-Mavzu: Ilmiy bilish jarayoni va uni amalga oshirish jarayonlari.

Bilish va uning xususiyatlari

Ong va anglash. Bilishning mohiyati va maqsadi. Bilish va bilim. Bilishning turlari. Ilmiy bilish, noilmiy bilish, oddiy bilish, diniy bilish. Bilish bosqichlari. Hissiy bilish va aqliy bilish hamda ularning shakllari, o‘zaro aloqadorligi. Tafakkur. Tafakkur shakllari va turlari, qonunlari. Tushuncha va uning xususiyatlari. Tasavvurlar va ularning xususiyatlari. Nazariya va konsepsiya. Intuitsiya. Bilish jarayonida intuitsiyaning roli.

4-Mavzu: Ilmiy bilish usullari

Ilmiy bilishning mazmun-mohiyati va xususiyatlari. Metodologiya bilish metodlari haqidagi nazariya. Metodlarning turlari. Ilmiy bilishning umumiy, alohida va xususiy turlari. Induksiya va deduksiya bilish metodlari sifatida. Analiz va sintezning bilish jarayonidagi o‘rni va roli. Eksperiment metodi, uning imkoniyat va chegaralari. Bilishga tizimli yondashuv. Tizimli tahlil va uning xususiyatlari. Tizimli tafakkur.

5-Mavzu: Nazariya va paradigma

Nazariya. Nazariya va amaliyot, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikning turlari. Nazariyaning vujudga kelishi, shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari.

Fan bilimlar tizimi sifatida. Fanlardagi qonunlar va qonuniyatlar. Ilmiy tadqiqot metodlari va ularning turlari. Qiyoslash va uning turlari. Kuzatish va uning turlari.

Eksperiment, eksperimentning maqsadi, imkoniyatlari va chegaralari. Eksperiment turlari.

2-Modul. Pedagogik tadqiqollarning metodologik ta‘minoti

6-Mavzu: Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning nazariy asoslari

Ilmiy tadqiqot mavzusini tanlash va uning dolzarbligini asoslash. Mavzuning (muammoning) ishlanganlik, (o‘rganilganlik) darajasini aniqlash. Ilmiy bilimlarni egallash muammosi. Ilmiy ijod va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Ilmiy ijod psixologiyasi. Ilmiy ijod motivlari. Turli davrlar va turli shaxslarda ilmiy ijod motivlarining turlichaligi. Fandagi inqiloblar. Ilmiy taraqqiyot algoritmlari. Ilmiy yangiliklarni hayotga tadbiiq qilishdagi to‘siqlar va qiyinchiliklar. Fan va ijtimoiy taraqqiyot.

7-Mavzu: Fan va din. Fan va ilmiy dunyoqarash

Dunyoning ilmiy manzarasi. Fan va san‘at. XXI asr boshlaridagi fanning ahloqiy muammolari. Fan ijtimoiy institut sifatida. Fanlardagi oqimlar. Ilmiy ijod etikasi.

8-Mavzu: Tadqiqotning konsepsiyasi, maqsadi va vazifalarini shakllantirish

Tadqiqotniing ilmiy-nazariy konsepsiyasi, maqsadi va vazifalari. Ilmiylik konsepsiyaning bosh belgisi sifatida. Konsepsiyaning ochiqligi, bahs va munozara hamda falsifikatsiyaga mosligi.

9 - Mavzu: Pedagogik ilmiy tadqiqotning ob‘ekti va predmetini belgilash

Pedagogik tadqiqotning ob‘ektini belgilash konsepsiyasi.

Pedagogik tadqiqot ob‘ektining xususiyatlari va belgilari. Pedagogik ilmiy

tadqiqot ob'ekti, predmeti o'rtasidagi ziddiyatlar va ularni echimini topish.

10 - Mavzu: Ilmiy tadqiqot metodlari

Ilmiy tadqiqot metodlari va ularning turlari. Qiyoslash va uning turlari. Kuzatish va uning turlari. Eksperiment, eksperimentning maqsadi, imkoniyatlari va chegaralari. Eksperiment turlari. Tabiiy fanlar va ijtimoiy fanlardagi eksperimentlarning o'ziga xos xususiyatlari. Modellashtirish va uning turlari. Jismoniy va mantiqiy modellar. Matematik modellashtirish. Ilmiy ijod va uning o'ziga xos xususiyatlari. Ilmiy ijod psixologiyasi. Ilmiy ijod motivlari. Turli davrlar va turli shaxslarda ilmiy ijod motivlarining turlichaligi. Fanlar tasnifi. Tabiiy va aniq fanlar, ijtimoiy hamda gumanitar fanlar. Fanlarning o'zaro bog'liqligi va ular tutashgan nuqtalardagi ixtirolar. Fandagi inqiloblar. Ilmiy taraqqiyot algoritmlari. Ilmiy yangiliklarni hayotga tadbiiq qilishdagi to'siqlar va qiyinchiliklar. Fan va ijtimoiy taraqqiyot. Analiz va sintez. Klassifikatsiya va differensiyani analiz metodida tutgan o'rni. Pedagogika fani metodologiyasini o'rganishga kompleks yondoshuv.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlarni talabalar asosiy mavzular bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy mashqlar, taqdimotlar, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha talabalar bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, tarqatma materiallar asosida bilimlarni o'zlashtirish, ilmiy maqolalar va tezislardan foydalanish, mavzular bo'yicha taqdimotlar tayyorlashlari lozim.

III.I Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

- 1-Mavzu: Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi o'quv fani sifatida
- 2-Mavzu: Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi fanining tarixi va rivojlanishi
- 3-Mavzu: Ilmiy bilish jarayoni va uni amalga oshirish jarayonlari
- 4-Mavzu: Ilmiy bilish usullari
- 5-Mavzu: Nazariya va paradigma
- 6-Mavzu: Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning nazariy asoslari
- 8-Mavzu: Tadqiqotning konsepsiyasi, maqsadi va vazifalarini shakllantirish
- 9-Mavzu: Pedagogik ilmiy tadqiqotning ob'ekti va predmetini belgilash
- 10-Mavzu: Referatning tuzilishi, mazmuni, turlari, strukturasi va uni tayyorlash.
- 11-Mavzu: Annotatsiya. Annotatsiyaning turlari.
- 12-Mavzu: Kurs ishi yozish tartibi va kurs ishi strukturasi.
- 13-Mavzu: Ilmiy-nazariy adabiyotlar bilan ishlash metodologiyasi
- 14-Mavzu: Maqola. Maqola yozish texnologiyasi. Maqola strukturasi.
- 15-Mavzu: Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash metodologiyasi.

IV. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarining tahminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

IV. I Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Seminar mashg'ulotlarida magistrlarda pedagogik tadqiqotlar metodologiyasiga doir bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilinadi.

Seminar mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya qiladigan mavzulari:

1. Metodologiya va ilmiy pedagogik izlanishlarni tashkil etishni prinsip va metodlari.

2. Ijtimoiy-siyosiy bilimlarni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish.
3. Boshlang'ich sinflarda ta'lim va tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, integratsiyalash.
4. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish qonuniyatlari va tamoyillari.
5. Didaktik tadqiqot metodlari.
6. O'quvchi bilimni tekshirish va baholash prinsiplari texnologiyasi.
7. Dars shakllari va uslublarini o'qitishning metodologik asoslari.
8. O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashni tashxis qilish.
9. Talabalar bilan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarning qo'yilgan vazifalar xarakteriga bog'liqligi
10. Interfaol metoddan foydalangan o'qituvchining (maktab), pedagogik (kollej, oliy o'quv yurtida) tajriba tadqiqotlari.
11. Pedagogika kursining mazmuni.
12. Pedagogik faoliyat.
13. Innovatsion pedagogikaning paydo bo'lishidagi ijtimoiy va ilmiy shart-sharoitlari.
14. Tarbiya jarayonining mazmuni, mohiyati va uning metodologik asoslari
15. O'zbekiston Respublikasi ta'lim islohatining metodologik asoslari.

V. Mustaqil ta'lim topshiriqlari bo'yicha tavsiyalar **Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari**

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Magistr mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash; masofaviy ta'lim.

Magistrga mustaqil ta'limning mavzulari beriladi, bu mavzular bo'yicha egallanishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar, muddati va topshirish shakli aytiladi. Ko'rsatilgan muddatda nazariy material konspekti, referati ko'riladi, test yoki savol-javob o'tkaziladi.

Tavsiya etiladigan mustaqil ta'limning mavzulari

1. Metodologiya tushunhasi.
2. Dialektika elementlari.
3. Ta'lim va tarbiya metodologiyasi.
4. Ziddiyat. Qonun va qonuniyat.
5. Didaktik tadqiqot metodlari
6. Pedagogika o'qitish jarayoni
7. Pedagogika kursining mazmuni.
8. Pedagogika fanida nazariya va amaliyot birligi
9. Pedagogik faoliyat
10. Dialektika qonunlari.
11. Pedagogik qarashlar, masofali, taqqoslovchi, empatiya, kinetik xarakterdagi aloqalar.

12. Metodologiyani tadqiq etish manbalari.
13. Deskriptiv va preskriptiv metodologiya.
14. Pedagogikaning metodologik asoslari.
15. Pedagogikadagi asosiy metodologik yondashuvlar.
16. Metodologik madaniyat - pedagogik faoliyal refleksiya sifatida.
17. Pedagogikani o'qitishning metodologik va umumnazariy savollari
18. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi va metodlari.
19. Metodologiyada "refleksiya" tushunchasi.
20. Metodologik deduktsiya.
21. Tadqiqot metodlarini tanlash tamoyillari.
22. Ta'limda metodologik yaxlitlik.
23. Tadqiqot metodlarining metodologik asoslari.
24. O'zbekiston Respublikasi ta'lim islohatining metodologik asoslari.
25. Talabalarni o'qitish va tarbiyalashni tashkiliy shakllarining asoslari.

Dasturning informatsion-metodik ta'minoti Elektron ta'lim resurslari

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. tdpu-INTRANET. Ped

Didaktik vositalar

Didaktik vositalar ro'yxati:

- **jihozlar va uskunalar, moslamalar:** elektron doska-Hitachi, LCD-monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).
- **video-audio uskunalar:** video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.
- **komp'yuter va multimediali vositalar:** kompyuter, Dell tipidagi proektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok).

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar

1. Choriyev A., Xodjayev B., Saliyeva Z., Choriyev I. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi (darslik). – Toshkent.: Iqtisodiyot dunyosi, 2018.
2. Choriev A., Choriev I. Pedagogikaning fanlararo bog'liklik metodologiyasi (o'quv kullanma). - Toshkent.: Fan, 2011.
3. Choriev A., Choriev I. Pedagogika tarixi metodologiyasi (o'quv kullanma).. - Toshkent.: Fan, 2010.
4. Краевский, В.В. Методология педагогического исследования: пособ. для педагога-исследователя / В.В. Краевский. – Самара: Изд-во СамГПИ, 1994. – 165 с.
5. Новиков, А.М. Методология образования. Издание второе / А. М. Новиков. – Москва : «ЕГвес», 2006. – 488 с.

Qo'shimcha darsliklar va o'quv qo'llanmalar

7. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. // Xalq so'zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11
8. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. “O'zbekiston”, 2017.
9. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017yil, 6-son,70-modda.
10. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta'minlash taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O'zbekiston”, 2017.
11. Барсков, А.Г. Научный метод: возможности и иллюзии (учебное пособие). — М., 1994.
12. Безрукова, В.С. Педагогика. Проективная педагогика: (учебное пособие), 1996.
13. Брызгалова, С.И. Научно-педагогическое исследование. - (учебное пособие).. 1996.
14. Гершунский, Б.С. Философия образования для XXI века. - М., 1998.

Fan/modul uchun ma'sul:

S.Tajbenova - Ajiniyoz nomidagi NDPI “Boshlang'ich ta'lim” kafedrasida docenti p.a.f.d (PhD)

A.Qadirekova - Ajiniyoz nomidagi NDPI “Boshlang'ich ta'lim” kafedrasida o'qituvchisi p.a.f.d (PhD)

Taqrizchilar:

M.Pazilova - Ajiniyoz nomidagi NDPI “Pedagogika” kafedrasida mudiri p.f.n., doc

N.Nagmetova - Ajiniyoz nomidagi NDPI “Boshlang'ich ta'lim” kafedrasida dotsenti p.f.f.d (PhD)

Fan dasturi Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2021-yil “28” 08 1-sonli bayonnoma).